



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(4)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 322 sahifa,  
18-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

O'quvchi yoshlarni muhandislik kasblariga yo'naltirishda xorij tajribasi.....	10
<a href="#">Maxamov X. T., Omondavlatova Sofiya Baxtiyor qizi</a>	
2-sinf darslarida "4K" ko'nikmalarini shakllantirish: XXI asr savodxonligi poydevori .....	14
<a href="#">Jo'rayeva Nargiza O'ktamovna</a>	
Ommaviy axborot vositalarining inson ruhiy salomatligiga ta'siri: empirik tadqiqot natijalari.....	18
<a href="#">Abdinazarova Bibixonim Rashid qizi</a>	
Talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda texnik loyihalarning o'rni .....	23
<a href="#">Axmadaliyev Mansurbek Erkaboy o'g'li, Rejabov Jaloliddin Sadiq o'g'li</a>	
Masalalarni modellashtirish metodi yordamida yechish yo'llari .....	28
<a href="#">B. B. Qarshiyev, Bekmuradov Bobur Toyloq o'g'li</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida elektron o'quv materiallaridan foydalanishning afzalliklari.....	34
<a href="#">Tog'aymurodova Marjona Yusuf qizi</a>	
Raqamli ta'lim muhitida dizaynerlik faoliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy metodlari.....	39
<a href="#">Satvoldiyeva Malaxatxon A'zamjanovna</a>	
Metall va metallmas buyumlarga ishlov berish texnologiyasi fanidan amaliy dars mashg'ulotlarini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi .....	47
<a href="#">A. Safarov</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mezonlari.....	57
<a href="#">Xolmatov Doston Dilshod o'g'li</a>	
7–8-sinf biologiya darslarida kompetensiyaviy yondashuvni takomillashtirish metodikasi .....	60
<a href="#">Xolmurodova Sarvinoz</a>	
Zamonaviy adabiyotda lider ayol portreti va shaxsiy rivojlanish falsafasi.....	64
<a href="#">G'afforova Dildora Ergashevna</a>	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari.....	69
<a href="#">Yusupova Umida Zayniddin qizi</a>	
Umumta'lim maktabida xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalashda kreativ yondashish texnologiyalarining mazmun-mohiyati.....	74
<a href="#">Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, G'aniyeva Dilfuza A'lam qizi</a>	
Oila muhitining raqamli tadbirkorlik motivatsiyasiga ta'siri: psixologik tahlil .....	78
<a href="#">Tursunov Lutfulla Sayfullayevich, Boyqobilova Sevinch Fazliddin qizi</a>	
Maktab va muzeylar aloqadorligini ta'minlash asosida o'quvchilarni ma'naviy merosga hurmat ruhida tayyorlashning pedagogik texnologiyasi .....	81
<a href="#">Nizomxonova Nargizaposhsho Ekrixon qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida produktiv o'qish malakasini shakllantirish.....	86
<a href="#">Xurramova Sojida Abdunazar qizi</a>	
Oliy ta'lim tizimida liderlik kompetensiyalarini takomillashtirishning kompleks yondashuvlari.....	91
<a href="#">Risvayeva Charos Zaydilla qizi</a>	
Sport sohasining ommaviyligi va inklyuzivligi .....	94
<a href="#">Z. N. Urunova, M. Jaborova</a>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixologik muhitni swot-tahlil qilish va korreksiyalash .....	97
<a href="#">Sattorova Shirinoy San'atovna</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishda integrativ yondashuv ..	100
<a href="#">Buvrayev Akram Rustam o'g'li</a>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy nutqiga qo'yiladigan talablar .....	104
<a href="#">Xolmuminova Dilfuza Xolmamatovna</a>	
O'qituvchining kasbiy faoliyatida ma'naviy-axloqiy fazilatlarining ahamiyati .....	107
<a href="#">Jumanazarova Dilnoza Umurzaqovna</a>	



Hadislar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish .....	111
<i>Akaboyeva Malika Raxmatovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyasi .....	114
<i>Beshimova Muazzam Bahodirovna, To'lanboyeva Farangis Ibrohimjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	117
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini tarkib toptirish .....	122
<i>Narmatova Fotima Dilshod qizi</i>	
Organizing Physics Lessons in General Education Schools Based on Gamification Elements .....	127
<i>Y. A. Mamatokhunov, U. S. Ismoilov, M. A. Muxtorjonova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning samaradorligi....	129
<i>Meyliyeva Sevinch Bozor qizi</i>	
Anoreksiyasi va bulimiyaning psixologik determinantlari hamda klinik jihatlari .....	132
<i>Askarova Nargiza Abdivaliyevna, To'raqulova Sevinch Sattorjon qizi</i>	
Koxlear implantli bolalar fonematik eshituvini shakllantirish asosida tovush talaffuzini shakllantirish .....	136
<i>Bozorov Otabek Yo'lchi o'g'li, Yakubova Asalxon Ulug'bek qizi</i>	
Qisqa masofaga yuguruvchi yosh sportchilarning kuch va tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirishda yillik rejalashtirish samaradorligi .....	139
<i>Eshpulatov Jamshid Nuraliyevich</i>	
Разработка модуля автопрокторинга для платформ дистанционного обучения на основе компьютерного зрения и анализа активности пользователя .....	144
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович</i>	
Определение нарушений академической честности на онлайн-экзаменах на основе компьютерного зрения: алгоритм и эффективность модуля камерaproctor .....	149
<i>Дустқобилов Акмал Бобомуродович, Маматов Ислombек Ильесович</i>	
Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt texnologiyalari: imkoniyatlar, muammolar va istiqbollar .....	154
<i>Delov To'liqin Erkinovich, Gulmirzayeva Zulayho Ko'klanboy qizi</i>	
Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar psixologiyasiga ta'siri .....	160
<i>Saidakbarova Nigora Abduraxim qizi</i>	
Talabalarni ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning besh blokli pedagogik modeli .....	165
<i>Amonov Mirjon Namozovich</i>	
O'smirlarning raqamli texnologiyalarga qaramligi va uning psixologik salomatlikdagi o'rni .....	170
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Normamatova Aziza Ibroxim qizi</i>	
Qizlarda erta nikohning psixologik omillari va sabablari .....	174
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari .....	178
<i>Jumayeva Guzal Xayriddin qizi</i>	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda barmoqlar harakati mashqlari asosida kichik motorika va harakat koordinatsiyasini rivojlantirish .....	183
<i>Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabiyevich</i>	
Globalashuv sharoitida yoshlar tashkilotlari orqali milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik strategiyalari.....	187
<i>Axralova Marg'uba Akmalxanovna</i>	
Tarbiya fani asosida o'quvchilarda huquqiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari .....	191
<i>Jumanova Xafiza Xoliqulovna</i>	
Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti sharoitida texnologik ta'lim mazmunini STEM yondashuvi asosida integratsiyalash va talabalarning texnik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish .....	196
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich, Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna, Barataliyeva Nasiba Maxmadaminovna</i>	
Ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayonining mazmuniy ta'minoti .....	202
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	

MUNDARIJA	СОДЕРЖАНИЕ	CONTENTS
		The Influence of a Competency-Based Approach on Educational Quality in Physics Instruction ..... 205 <i>A. Xakimov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, M. A. Ne'matova</i>
		Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ekologik savodxonligini shakllantirishning amaliy holati ..... 208 <i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>
		Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o'rgatishning pedagogik va psixologiyistik xususiyatlari ..... 214 <i>Ismoilova Muattar Ilyosovna</i>
		Sharq mutafakkirlarining yoshlarni mehnat va kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha qarashlari ..... 219 <i>Alqarov Qodir Xoimatovich, Irmatov Pirmuhammad Normat o'g'li</i>
		Metallar mavzusini interfaol metodlar asosida o'qitish orqali o'quvchilar kreativligini oshirish ..... 222 <i>Murodova Sayyora Qanoatovna</i>
		Moliyaviy terminlarni tarjima qilishning metodologik muammolari ..... 226 <i>Norboeva Dilafuz Djumaqulovna, Suvonov Ozodbek Jamshid o'g'li</i>
		Oliy ta'lim muassasalarida yakuniy nazorat jarayonlarini sun'iy intellekt texnologiyalari asosida tashkil etishning afzalliklari ..... 230 <i>Abdunabiyeva Kamola Mansurovna</i>
		Pedagogik ta'limda AI-tutor texnologiyalaridan foydalanish: o'zaro ta'sir mexanizmi va samaradorlik tahlili ..... 236 <i>Abdunabiyeva Maftunaxon Solijon qizi</i>
		Talabalarda prokrastinatsiyani kamaytirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ..... 240 <i>Kozimov Sayfullah Maxammadjon o'g'li</i>
		Kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirish ..... 245 <i>Raximov Zokir Toshmirovich</i>
		Yosh voleybolchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarini oshirishning pedagogik asoslari ..... 249 <i>Temirov Shoirbek Raimjonovich</i>
		Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonlari mexanizmlarini takomillashtirish ..... 253 <i>Kimsanova Rahnamo Solijonovna</i>
		Milliy kurash vositasida yoshlarning irodaviy sifatlarini rivojlantirish ..... 257 <i>Muratov Muzaffar Shermamatovich</i>
		Xavotirlanish muammosining psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'rganilganligi va o'smirlilik davrining psixologik xususiyatlari ..... 261 <i>Mutalibjonov Nurillo Iroiljon o'g'li</i>
		Bo'lajak pedagoglarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning innovatsion va refleksiv asoslari ..... 264 <i>Oblayeva Lobar Erdonovna</i>
		STEM Education Technology: Physics Teaching Methodology and Future Innovations ..... 268 <i>Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Odinakhon Sotvoldiyeva Abdumannob qizi</i>
		Mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariy asoslari ..... 272 <i>Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna</i>
		Maktabgacha tarbiya yoshda bolalar kognitiv sohasining tadqiq qilinishi ..... 276 <i>Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi</i>
		Modernization of Physics Teaching Methodology Based on Stream Integration in Vocational Schools ..... 279 <i>S. Z. Zaynobiddinov, Yorqinjon Abduraimjanovich Mamatokhunov, Z. M. Orifjonova</i>
		Cultural Competence as a Core Component of Foreign Language Teaching: Theoretical Foundations and Pedagogical Integration ..... 282 <i>Shahlo Obidova</i>
		Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning akmeologik madaniyatini rivojlantirishda ART-pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 286 <i>Shodmonova Shoirsa Saidovna, Sharifova Dildora Shavkiddin qizi</i>
		Talabalarning to'garak mashg'ulotlari orqali ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari ..... 290 <i>Turakulova Feruza Mamadoli qizi</i>



Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili fanini o'qitishda kreativlik qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari .....	294
<i>Xoliyeva Sevara Rustam qizi</i>	
Texnologiya darslarida raqamli texnologiyalar vositasida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	298
<i>Xudoyberdiyeva Nilufar Raximqulovna</i>	
Umumta'lim maktablari musiqa darslarida media-kontentlardan foydalanib o'quvchilarda estetik didni shakllantirish.....	302
<i>Xudoyqulov Asilbek Aziz o'g'li</i>	
Педагогические стратегии профилактики раннего профессионального выгорания у студентов-медиков (в условиях высокой информационной нагрузки) .....	305
<i>Асророва Мафтунабегим Махаммадризо кизи</i>	
Формирование самоотношения у подростков, переживших насилие .....	308
<i>Кушакова Наргиза Исламбаевна, Азаркова Миланика Дмитриевна</i>	
Изучение развития эпистемических знаний у учащихся 5-го класса в педагогико-психологической литературе.....	311
<i>Нехочина Лола Шахобиддиновна</i>	
Когнитивные уровни читательской деятельности в заданиях PIRLS: типология, процессы понимания и система оценивания.....	314
<i>Нуруллаева Шахло Уктамовна, Александра Валерьевна Шаркова</i>	



# BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Yusupova Umida Zayniddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
 Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, matnni anglash, tahlil qilish hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning o'rni yoritilgan. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlashning samarali usullari, o'quvchilarning nutq boyligini oshirish va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy-metodik jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, matn ustida ishlash metodikasini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim metodikasi, o'qish darslari, matn ustida ishlash, o'qish savodxonligi, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, mustaqil fikrlash, nutqni rivojlantirish, kompetensiyaviy yondashuv, ta'lim samaradorligi, matn tahlili, innovatsion metodika.

**Abstract:** The pedagogical foundations for improving the methodology of working with text in primary school reading lessons are analyzed. The study highlights the role of modern pedagogical technologies and interactive methods in developing students' reading literacy, text comprehension, analytical skills, and independent thinking abilities. In addition, effective methods of working with text in primary school reading lessons, as well as their significance in enriching students' speech and developing communicative competence, are scientifically and methodologically substantiated. The results of the study indicate that organizing text-based learning activities on the basis of modern approaches contributes to increasing the effectiveness of education.

**Key words:** primary education methodology, reading lessons, text-based activities, reading literacy, interactive methods, pedagogical technologies, independent thinking, speech development, competency-based approach, educational effectiveness, text analysis, innovative methodology.

**Аннотация:** Проанализированы педагогические основы совершенствования методики работы с текстом на уроках чтения в начальной школе. В ходе исследования раскрыта роль современных педагогических технологий и интерактивных методов в развитии читательской грамотности учащихся, понимании текста, его анализе и формировании навыков самостоятельного мышления. Научно-методически обоснованы эффективные способы работы с текстом на уроках чтения в начальных классах, а также их значение в развитии речевого запаса учащихся и коммуникативной компетенции. Результаты исследования показали, что организация методики работы с текстом на основе современных подходов способствует повышению эффективности обучения.

**Ключевые слова:** методика начального образования, уроки чтения, работа с текстом, читательская грамотность, интерактивные методы, педагогические технологии, самостоятельное мышление, развитие речи, компетентный подход, эффективность обучения, анализ текста, инновационная методика.

## KIRISH

Bugungi kunda pedagogika tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'lim jarayonining sifat va samaradorligini oshirishni, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishni hamda ularni zamonaviy bilim va kompetensiyalar bilan qurollantirishni asosiy maqsad sifatida belgilab bermoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi uzluksiz ta'lim tizimining eng muhim va mas'uliyatli bo'g'ini hisoblanadi. Chunki aynan shu davrda o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqi, o'qish savodxonligi, tafakkuri, dunyoqarashi hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Shu jihatdan boshlang'ich sinf o'qish darslarini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, o'quvchilarning matnni tushunishi, tahlil qilishi va undan xulosa chiqarish malakalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslari nafaqat o'quvchilarga ravon o'qishni o'rgatadi, balki ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga, estetik didiga, nutq madaniyatiga va mustaqil fikrlashiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qish darslarida qo'llaniladigan matnlar orqali o'quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Shu sababli matn ustida ishlash metodikasini to'g'ri tashkil etish ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Matn ustida ishlash jarayoni o'quvchilarning o'qilgan materialni anglash, asosiy g'oyani ajratib olish, qahramonlarga tavsif berish, voqealarga munosabat bildirish, mustaqil xulosa chiqarish hamda matn mazmunini qayta hikoya qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Hozirgi davrda xalqaro baholash dasturlari, jumladan, PIRLS va PISA tadqiqotlarida o'quvchilarning matnni tushunish va tahlil qilish kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur dasturlarda o'quvchilarning matnni o'qish tezligi emas, balki uni anglash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga nisbatan fikr bildirish va matndan kerakli ma'lumotni ajratib olish darajasi asosiy mezon sifatida baholanadi. Bu esa boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Chunki an'anaviy dars jarayonida ko'proq matnni o'qitish va qayta so'zlatishga urg'u berilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlar o'quvchini faol fikrlashga, mushohada yuritishga va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiradi<sup>1</sup>.

Boshlang'ich ta'lim amaliyotida matn ustida ishlashning turli usul va vositalaridan foydalaniladi. Jumladan, ifodali o'qish, savol-javob, qayta hikoyalash, reja tuzish, matnni qismlarga ajratish, lug'at ustida ishlash, muammoli vaziyat yaratish, klaster, aqliy hujum, insert kabi interfaol metodlar o'quvchilarning matnni chuqur o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, ularning erkin fikrlashi va ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birga, matn ustida ishlashda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim metodik talablardan biri hisoblanadi. Chunki boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarda obrazli tafakkur ustun bo'lib, ular matn mazmunini ko'proq tasviriy vositalar, qiziqarli topshiriqlar va hayotiy misollar orqali yaxshi anglaydi.

Matn ustida ishlash metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Psixolog olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qishga bo'lgan qiziqishi va matnni tushunish darajasi o'qituvchining darsni tashkil etish mahoratiga bevosita bog'liqdir. Agar dars jarayonida matn tahlili samarali tashkil qilinsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, voqealarni tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish kabi aqliy operatsiyalar rivojlanadi. Natijada o'quvchi oddiy matn mazmunini o'zlashtirishdan yuqori bosqichga ko'tarilib, matnga tanqidiy va ijodiy yondasha boshlaydi.

Shuningdek, o'qish darslarida badiiy matnlar bilan ishlash o'quvchilarning nutq boyligini oshirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Badiiy asarlarda uchraydigan tasviriy ifodalar, maqol va iboralar, sinonim va antonimlar o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi, og'zaki va yozma nutqining rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli matn ustida ishlash jarayonida lug'at ustida ishlash, notanish so'zlarning ma'nosini izohlash, matndan badiiy vositalarni topish kabi topshiriqlardan foydalanish muhim metodik ahamiyatga ega.

Ta'lim tizimida olib borilayotgan modernizatsiya jarayonlari boshlang'ich ta'lim metodikasiga ham yangicha yondashuvlarni olib kirishni talab etmoqda. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, multimedia vositalari asosida dars tashkil etish, elektron ta'lim resurslarini qo'llash o'quvchilarning matnni o'zlashtirish samaradorligini oshirmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari o'quvchilarning mustaqil ishlash, axborotni izlash, tahlil qilish va undan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish bugungi kun pedagogikasining dolzarb ilmiy-amaliy masalalaridan biri hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish va matn ustida ishlash metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning matnni tushunishi, tahlil qilishi va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Pedagog olimlar tomonidan matn ustida ishlash jarayoni o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantiruvchi, tafakkurini kengaytiruvchi hamda nutq madaniyatini shakllantiruvchi muhim didaktik vosita sifatida baholanadi.

Ilmiy manbalarda o'qish darslarida matn bilan ishlashning ifodali o'qish, qayta hikoyalash, savol-javob, reja tuzish, matnni qismlarga ajratish, muammoli vaziyat yaratish kabi metodlari o'quvchilarning faolligini oshirishi alohida ta'kidlangan<sup>2</sup>.

1 G'ulomova H., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G. "O'qish darslarida matn ustida ishlash". – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 128 bet.

2 Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. "Ona tili va o'qish savodxonligi o'qitish metodikasi". – Toshkent: Mumtoz so'z, 2022. – 352 bet.



Mahalliy metodist olimlarning ilmiy ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish malakasini shakllantirish, matnni anglash va nutqni rivojlantirish masalalariga keng e'tibor qaratilgan. Tadqiqotlarda o'qish darslarining asosiy vazifasi faqat o'qish texnikasini shakllantirish emas, balki o'quvchilarning ongli o'qishi, matn mazmunini anglash va unga nisbatan mustaqil munosabat bildirish kompetensiyasini rivojlantirishdan iborat ekanligi qayd etiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matn ustida ishlash metodlarini tanlash zarurligi asoslab beriladi.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ham o'qish savodxonligi masalasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Ayniqsa, PIRLS hamda PISA xalqaro tadqiqotlari doirasida o'quvchilarning matn tushunish, tahlil qilish, axborotni saralash va undan amaliy faoliyatda foydalanish kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur xalqaro tadqiqotlar natijalari boshlang'ich ta'limda matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish, dars jarayoniga interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zaruratini ko'rsatmoqda.

## TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar nazariyasidan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish, suhbat, savolnoma va amaliy tajriba-sinov metodlari qo'llanildi. Pedagogik kuzatish metodi orqali boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonining amaldagi holati o'rganildi. Tahlil va taqqoslash metodlari yordamida an'anaviy hamda zamonaviy metodlarning samaradorligi qiyosiy jihatdan baholandi<sup>3</sup>.

Shuningdek, tadqiqot davomida interfaol metodlarning o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishdagi o'rni alohida o'rganildi. Jumladan, "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "BBB", "Rolga kirish", "Muammoli vaziyat" kabi metodlarning o'quvchilarning matnni chuqur anglashiga, mustaqil fikrlashiga va erkin munosabat bildirishiga ta'siri ilmiy-metodik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning bilish faolligini oshirish hamda dars samaradorligini ta'minlash metodologiyaning asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilandi.

Mazkur tadqiqot metodologiyasining muhim jihatlaridan biri ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni integratsiya qilish bilan bog'liqdir<sup>4</sup>. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, elektron ta'lim resurslari va multimedia vositalarini qo'llash orqali o'quvchilarning matn ustida ishlash jarayonidagi faolligini oshirish imkoniyatlari o'rganildi. Natijada matn ustida ishlash metodikasini zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirish o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasining amaldagi holati o'rganildi hamda o'quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodlarning samaradorligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchilarning o'qish savodxonligi va bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning matn mazmunini anglash, asosiy g'oyani ajratib olish, voqealarga munosabat bildirish hamda mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari an'anaviy metodlarga nisbatan samaraliroq shakllanishi kuzatildi.

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarning matn ustida ishlash jarayonidagi faoliyati pedagogik kuzatish asosida tahlil qilindi. Kuzatish natijalariga ko'ra, dars jarayonida faqat matnni o'qitish va qayta hikoyalash bilan cheklanilgan holatlarda o'quvchilarning matnni chuqur tushunish darajasi pastligi aniqlandi. Bunday darslarda o'quvchilar ko'proq tayyor ma'lumotni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etib, mustaqil fikr yuritish va tahlil qilish imkoniyatlari yetarli darajada shakllanmasligi kuzatildi. Shu bilan birga, matn ustida ishlashda interfaol metodlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning faolligi, erkin fikrlashi va mavzuga qiziqishi ortgani aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlari davomida "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "BBB", "Muammoli vaziyat", "Rolga kirish" kabi metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali tashkil etilgan darslarda o'quvchilar matn mazmunini chuqurroq anglashga, voqealarni tahlil qilishga hamda qahramonlarga mustaqil baho berishga harakat qildilar. Natijada o'quvchilarning nutq faolligi oshib, o'z fikrini erkin ifodalash ko'nikmalari rivojlandi. Ayniqsa, muammoli savollar asosida olib borilgan suhbatlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda samarali vosita ekanligi aniqlandi.

3 Matchonov S. "Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini tahlil qilish". – Toshkent: Muxlis, 2020. – 160 garov.

4 Abdullayeva Q. va boshqalar. "O'qish savodxonligi darsliklari uchun metodik qo'llanma". – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2021. – 112 bet.

Tadqiqot natijalarida o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda matn ustida ishlashning muhim o'rni borligi ham kuzatildi. Matn tarkibidagi yangi so'zlar, badiiy tasvir vositalari, maqol va iboralar ustida ishlash o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitishga xizmat qildi. Shu bilan birga, ifodali o'qish va qayta hikoyalash mashqlari o'quvchilarning nutq ravonligi hamda o'qish texnikasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'qish darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham matn ustida ishlash samaradorligini oshiradi. Multimedia vositalari, elektron taqdimotlar va audio matnlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning diqqatini jalb qilish va matn mazmunini yaxshiroq anglash imkoniyati kengaydi. Natijada o'quvchilarning darsdagi ishtiroki faollashib, o'qishga bo'lgan qiziqishi ortdi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish, nutq boyligini oshirish hamda dars samaradorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligi tajriba-sinov natijalarida o'z tasdig'ini topdi.

Muhokamalar jarayonida o'qish darslarida matn ustida ishlashning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining metodik mahorati, darsni tashkil etish usuli hamda tanlangan pedagogik texnologiyalarga bog'liq ekanligi aniqlandi. Agar dars jarayonida matn faqat o'qitilib, mazmuni yuzaki tahlil qilinsa, o'quvchilarda chuqur mushohada yuritish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaydi. Aksincha, matn ustida ishlashda muammoli savollar, ijodiy topshiriqlar, bahs-munozara elementlari va interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirib, matn mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari PIRLS hamda PISA talablari bilan ham uyg'un ekanligi kuzatildi. Chunki mazkur xalqaro baholash dasturlarida o'quvchilarning matn tushunish, tahlil qilish, ma'lumotlarni qiyoslash va amaliy xulosalar chiqarish kompetensiyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish nafaqat milliy ta'lim sifati, balki xalqaro baholash natijalarini yaxshilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokamalar davomida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ham asoslandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari obrazli tafakkurga moyil bo'lgani sababli, ular matn mazmunini ko'rgazmali vositalar, tasviriy topshiriqlar va hayotiy misollar asosida yaxshiroq o'zlashtiradi. Shu sababli darslarda rasmlar, audio va video materiallar, sahnalashtirish usullaridan foydalanish o'quvchilarning matnga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, mazmunni anglash darajasini ham kuchaytiradi. Tadqiqot davomida aynan multimedia vositalaridan foydalanilgan darslarda o'quvchilarning faol ishtiroki va o'qishga qiziqishi yuqori bo'lgani kuzatildi<sup>5</sup>.

Shuningdek, matn ustida ishlash jarayonida lug'at ustida ishlashning ahamiyati ham muhokama qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarning matn to'liq tushunishidagi asosiy muammolardan biri lug'at boyligining yetarli emasligi bilan bog'liqdir. Shu sababli yangi so'zlarning ma'nosini izohlash, sinonim va antonimlar ustida ishlash, badiiy ifodalarni tahlil qilish o'quvchilarning nutq boyligini oshirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning matn mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Muhokama natijalariga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish uchun o'qituvchi faoliyatini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish zarur. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish o'quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda o'qish savodxonligini yuqori bosqichga ko'taradi. Shu bilan birga, matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish o'quvchilarning nafaqat o'qish ko'nikmalarini, balki ularning umumiy intellektual rivojlanishi va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ham muhim pedagogik omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, mustaqil fikrlashini shakllantirish hamda nutq madaniyatini oshirishning muhim pedagogik omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar matn ustida ishlash jarayoni o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishda, ularning tafakkur doirasini kengaytirishda hamda matn mazmunini ongli ravishda o'zlashtirishda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'qish darslari samaraliroq hisoblanadi. "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "BBB", "Muammoli vaziyat", "Rolga kirish" kabi metodlarning qo'llanilishi<sup>6</sup> o'quvchilarning matn chuqur

5 Turdiyeva M. "Matn tahlili va talqini". – Toshkent: Navro'z, 2019. – 144 garov.

6 Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yordam dasturlari bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent: Ta'lim sifatini markazi, 2021. – 96



anglashiga, mustaqil fikr yuritishiga, voqealarga tanqidiy yondashishiga va erkin munosabat bildirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi va qiziqishi ortib, matn ustida ishlash jarayoni ijodiy va samarali tus oldi.

Tahlillar davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matni tushunish darajasi ko'p jihatdan o'qituvchining metodik mahorati va darsni tashkil etish usullariga bog'liqligi aniqlandi. Shu sababli o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishi, matn mazmunini hayotiy misollar bilan bog'lab tushuntirishi hamda interfaol metodlardan maqsadli foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning matnga bo'lgan qiziqishini oshirib, o'qish samaradorligini kuchaytirishi kuzatildi.

Tadqiqot davomida matn ustida ishlashning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi o'rni ham asoslandi. Lug'at ustida ishlash, badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish, ifodali o'qish va qayta hikoyalash mashqlari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitishga xizmat qilishi aniqlandi. Natijada o'quvchilarning fikrni izchil va ravon ifodalash ko'nikmalari shakllanib, kommunikativ kompetensiyasi rivojlandi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari PIRLS hamda PISA xalqaro baholash dasturlarida belgilangan talablar bilan uyg'un ekanligi aniqlandi. Chunki mazkur dasturlarda o'quvchilarning matni tushunish, tahlil qilish, axborot bilan ishlash va mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyalariga ustuvor ahamiyat beriladi. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini takomillashtirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash metodikasini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, nutq boyligini kengaytirish hamda ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim amaliyotida o'qish darslarini yanada takomillashtirish, metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'ulomova H., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G. "O'qish darslarida matn ustida ishlash". – Toshkent: O'qituvchi, 2018. – 128 bet.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. "Ona tili va o'qish savodxonligi o'qitish metodikasi". – Toshkent: Mumtoz so'z, 2022. – 352 bet.
3. Matchonov S. "Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslarini tahlil qilish". – Toshkent: Muxlis, 2020. – 160 bet.
4. Abdullayeva Q. va boshqalar. "O'qish savodxonligi darsliklari uchun metodik qo'llanma". – Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis, 2021. – 112 bet.
5. Turdiyeva M. "Matn tahlili va talqini". – Toshkent: Navro'z, 2019. – 144 bet.
6. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun yordam dasturlari bo'yicha metodik tavsiyalar. – Toshkent: Ta'lim sifatini nazorat qilish markazi, 2021. – 96 bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(4)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.